

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

"Z" tovushi bor so'zni toping.

Maqollarni o'qib uning mazmuni tushuntiriladi.

Oz so'z-la – soz so'z-la.


Ay-tar so'z-ni ayt,

Ayt-mas so'z-dan qayt.

Daftар bilan ishslash: (10 daqiqa)

1. *Zz harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganiningizni ayting.*

2. *Zebra so'zining chizmasidan r harfining o'rmini aniqlang va tegishli kataknini bo'yang.*



3. *Berilgan namunadan bosma Zz harfining bosh va kichik ko'rinishini va so'zlarni avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqili yozing.*

4. *Rasmni ifodalovchi so'zlarni jadvaldan topib shu kataklarni bo'yang.*

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiyonaldingiz?

38-mavzu: [z] tovushi. Zz harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [z] tovushining talaffuzi va Zz harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [z] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: O'zbekiston tabiatи, [z] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmlи va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar, O'zbekiston tabiatи aks ettirilgan rasmlar, "Zumrad va Qimmat" ertagi.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

So'zlarni bo'g'inlab aytamiz mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga ikki bo'g'inli so'zlarni topib bo'g'inga bo'lib aytishlarini so'raydi.

-Bugun siz bilan "So'zlarni bo'g'inlab aytamiz" mashqini o'tkazamiz. Ikki bo'g'inli so'zlarni topib bo'g'inga bo'lib aytинг.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog'liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so'zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

Zebra- 2 bo'g'in , 1- bo'g'in -zeb, 2-bog'in -ra chizmada



O'xhash bo'g'inli so'zlarni o'qilishi va so'zlar ma'nolari tushuntiriladi. Zar Zarb Zar-ba

Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)

Harflar tasmasidan o'tilgan harflar esga olinadi.

1. So'zlarni ketma-ket o'qing.

2. Rasmlar orasidan topishmoq javobini toping.

Oz qo'ysa, "Sol", – deydi.

Ortiq qo'ysa, "Ol", – deydi.(tarozi)

3. O'zbekiston matnini rasmni ifodalovchi so'zlarni o'z o'rniiga qo'yib o'qing.

O'zbekiston

– O'zbekiston qanday diyor?

– O'zbekiston – qadimiy diyor. O'zbekistonda ulkan tog'lar, ko'rkam bog'lar , zilol suv , turli-tuman hayvonlar , qadimiy obidalar bor. O'zbekistonda do'stlik, tinchlik, birodarlik qadrlanadi.

Rasmlar asosida O'zbekiston tabiatи haqida suhbatlashish tavsiya etiladi.

4. QR-kod orqali "Zumrad va Qimmat" ertagidan parcha eshittiriladi.

Ertakning davomi o'quvchilardan so'raladi. Ertak qahramonlariga ta'rif beriladi.

Darslik

[QR] tovurish, Z harfi 38-dars

Rasmiga qarang. Z harfi qatnashgan so'zlarni topib, ulariga mos chizma chizing.

biz	zi-na
siz	zi-ra
qiz	zi-yo

tuz	u-zun
kuz	u-zuk
yuz	u-zoq
muz	u-zum

Rasmilar orasidan topishmoq javobini toping.

Oz qo'ysa, "Sol", – deydi.
Ortiq qo'ysa, "Ol", – deydi.


O'zbekiston

– O'zbekiston qanday diyor?
– O'zbekiston – qadimiy diyor. O'zbekistonda ulkan , ko'rkam , zilol , turli-tuman , qadimiy bor. O'zbekistonda do'stlik, , birodarlik qadrlanadi.

Zumrad va Qimmat 24

Daftар bilan ishlash: (10 daqqa)

1. Bo`g`inli jadvalni tuzib, yozing.
2. Bo`g`inlardan so`z tuzing.



3. Narsalar nomida Z tovushi ishtirok etgan rasmni bo`yang.

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?
- Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?

39-mavzu: [v] tovushi. Vv harfi

Dars maqsadi:

- [v] tovushining talaffuzi va Ss harfining bosma shakli bilan tanishadilar;
- [v] undosh tovush ekanligini bilib onladilar.
- so`zlardan [v] tovushining o`rnini aniqlashni o`rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [v] tovushi ishtirok etgan so`z va gaplarni o`qishni o`rganadilar.

Tayanch so`zlar: [v] tovushi

Didaktik materiallar: ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlli kartochkalar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O`quvchilardan bugungi kun sanasi so`raladi.

So`z tuz mashqi: O`qituvchi doskadagi a, d, m, o kesma harflarni qo`yadi. O`quvchilardan shu harflardan so`z tuzishni so`raydi.

- Bugun siz bilan "So`z tuz" mashqini o`tkazamiz. Doskada yozilgan harflarni boshqa ketma-ketlikda joylashtirsak so`z hosil bo`ladi.

Asosiy qism (40 daqqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqqa)

O`quvchilarga vov-vov, vaq-vaq ovozlarini qayerlarda eshitganlarini va bu ovozlar orasidagi o`xhash jihatlarini so`raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Bu ovozlar nimanig ovozi edi?